

MAQSUD SHAYXZODA - SAN'ATKOR TA'RIFIDA!*Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi**TOSHKENT DAVLAT**TRANSPORT UNIVERSITETI**Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi**yoldoshevafarangiz311@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada serqirra ijodkor, samimiy inson, zahmatkash shaxs Maqsud Shayxzodaga san'atkor Sora Eshonto'rayeva tomonidan bildirilgan iliq fikrlar va adibning "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy drammasining san'atkorlar tomonidan gavdalantirilishi aks etadi.

Kalit so'zlar: tarix, drama, jasorat, san'atkor, sahna, abadiylik.

МАКСУД ШЕЙХЗАДЕ – В ОПРЕДЕЛЕНИИ ХУДОЖНИК!*Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна.**ТАШКЕНТСКАЯ ОБЛАСТЬ**ТРАНСПОРТНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени**yoldoshivafarangiz311@gmail.com*

Абстрактный. В данной статье отражены теплые мысли, высказанные художницей Сорой Эшонтораевой гениальному творцу, искреннему человеку и трудолюбивому человеку Максуду Шайхзаде, и воплощению художниками исторической драмы писателя «Джалалуддин Мангуберди».

Ключевые слова: история, драма, мужество, художник, сцена, вечность.

MAQSUD SHEIKHZADEH - IN THE DEFINITION OF AN ARTIST!*Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna**TASHKENT STATE**TRANSPORT UNIVERSITY**Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student**yoldoshevafarangiz311@gmail.com*

Abstract. This article reflects the warm thoughts expressed by the artist Sora Eshontorayeva to the brilliant creator, sincere person, and hardworking person Maqsud

Shaikhzade, and the embodiment of the writer's historical drama "Jalaluddin Manguberdi" by the artists.

Key words: history, drama, courage, artist, scene, eternity.

Odamzot umrining qay tarzda o'tishi, unga Yaratuvchi umr barakasini qay tomondan berishini hech kim bilmaydi. Kingadir qilgan yaxshi ishlari, kingadir qurgan imrotlari va yana kingadir farzandlaridan keladigan maqtovlar u uchun umrning mazmuni hisoblanar. Ammo asl ijodkor uchun uning hayotiga asl ma'no u yozgan asarlar, kitoblar ortidan baraka kelishidir. O'zbekiston va Ozarbayjon xalqining suyukli farzandi va zabardast adabiyot vakili Maqsud Shayxzoda tomonidan 1944 yilda "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy drammasi yaratilgan. O'sha davrlar ayni butun dunyoni larzaga solgan "Ikkinchi jahon urushi" yillariga to'g'ri keladi. Qonli urush alangasida dunyo larzaga kelayotgan bir paytda XIII asrda yashab mo'g'ul qo'shinlariga qarshi mardonavor urush olib borgan Xorazmshohlar sulolasining eng so'ngi zabardast vakili Jaloliddin Manguberdi haqida haqiqiy qahramonona tarixiy asar yaratiladi. Bu tarixiy asarni butun xalqimiz intiqlik bilan kutayotgan edi va bu asarni barcha iliqlik bilan kutib oldi. Asar haqida o'z zamonasining yetuk iste'dod egasi san'atkor Sora Eshonto'rayeva shunday eslaydi: "1944 yil... Ikkinchi jahon urushi frontlarida G'alaba chaqmoqlari chaqnay boshlagan, hamma G'alaba muqarrarligiga ishonib, fidokorona mehnat qilayotgan paytlar..."

Og'a (Atoqli rejissyor Mannon Uyg'urni shunday deb atashgan) shoir Maqsud Shayxzodaning o'zbek xalqi tarixidan qahramonlik tragediyasini yozganligi haqida Farg'onadan xushxabar keltirdi. Vodil qishlog'idagi Usmon Yusupov qurdirgan ijodkorlar bog'ida Uyg'ur, Oybek, Usmon akalar qatnashuvida shu asar o'qilib, asosan ma'qullanganini aytdi. Biz shu asarni intiqlik bilan kuta boshladik. Chunki she'riy drama hamma vaqt ham tomoshabop, ham artistlar mahorati uchun bir maktab bo'lishini "Hamlet", "Rustam", "Muqanna" singari sahna asarlaridan bilardik.

Asar teatrimizga yetib kelishi bilan zalga tutashgan foyega to'plandik. Artistlarimiz juda bilimdon, tajribali ekanini aytmam ham bo'ladi. She'riy dramani Maqsud Shayxzodaning o'zi o'qib berdi. To'plangan san'atkorlar har bir obrazning xarakterini, so'zini, dialoglarini sinchkovlik bilan eshitib, dillarida tahlil qilib borishdi. Qahramonlik va muhabbat, lirika va romantika, jo'shqin hissiyot va ehtirosiga ko'proq moyil bo'lgan hamzachilar uchun bu tarixiy drama yangi kashfiyot bo'ldi. Shoir tilning falsafiyli, hikmatli so'zlarga boyligi va soddaligi, har bir obrazning yaxlitligi va mukammalligi, uning ustiga xoreografiya, yakka qo'shiqlarni kiritib ajoyib quyilma yaratish niyati – asarning barcha fazilatlarini teatrning "katta og'iz" artistlaridan tortib

sahna ishchilarigacha ma'qul tushdi. Xullas, asar hammani o'zigashaydo qilib qo'ydi"¹.

Darhaqiqat, o'zbek adabiyotida ulkan burilish yasagan va barchaga birdek qiziqish uyg'ota olgan "Jaloliddin Manguberdi" drammasida buyuk ajdodimizning Chingiz qo'shinlariga qarshi mardonavor kurashi aks etadi. Jaloliddinning o'z yurtidan bosh olib ketishligiga sabab bo'lgan asasiy omil sifatida Xorazmshohlar davlatida Alouddin Muhammad hokimiyatidagi ichki birikish yo'qligi va hamma o'z bilganicha ish tutishi, Alouddin Muhammadning hokimiyati juda zaifligi sabab bo'ladi. Bu holatlarni drammada eng munosib so'zlar bilan ta'riflab bera olgan ijodkorning mahoratiga qoyil qolmasdan ilojingiz yo'q kishini. Eshonto'rayeva Maqsud Shayxzodaga ta'rif berar ekan: "Jaloliddin Manguberdi" Maqsud akaning birinchi sahna asari bo'lishiga qaramay, ham o'qishli, ham tomoshabop edi. Har bir artist o'z roli ustida qattiq izlandi, zargardek zahmat chekdi. Teatrda biror asar bunchalik ishtiyoq, bunchalik safarbarlik bilan repetitsiya qilinmagan. Bu, yozuvchining baxti edi. Qolaversa, asarni tezroq xalqqa ko'rsatib, front orqasida mardona mehnat qilayotshan vatandoshlarimizga ma'naviy madad berish istagi kuchli edi. O'sha kunlarda artistlar ham, teatr sexlari ham kecha-kunduz ishladi. To'yga, katta bayramga hozirlik ko'rilyotgandek hamma harakatda, ko'tarinki kayfiyatda edi...

O'shanda deyarlik har kuni Maqsud Shayxzoda teatrga kelib o'tirar, Og'a talab qilgan joyda so'zlarni o'zgartirib berar, kompozitor Manas Leviev bilan bahslashar, artistlarning ezilib ishlayotganini ko'rib, rahmi kelganidan: "Og'a, ko'p qiynamang, bularni!" deb murojaat qilar, Og'a esa: "Agar Jaloliddin sizga o'xshab yumshoq ko'ngil bo'lganida, Chingiz sarbozlarini qiyqiratib quvolmagan bo'lardi. Siz o'z ishingizni biling-u, bu yog'ini bizga qo'yib bering!" — deb javob qaytarardi..."²

Shayxzoda Ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan „Jaloliddin Manguberdi“ (1944) tragediyasida o'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mugul istilochilariga karshi kurashgan so'nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan.³

Mahoratli ijodkorimiz betakror qalam sohibi bo'lishi bilan bir qatorda qalban juda mehribon, samimiy va beg'ubor inson bo'lganlar. Ko'ngli bo'shligi uchun hech kimga ozor bermagan va kimningdir qalbiga ozor berishdan juda qo'rqan.

Shayxzoda she'riy ijodida, asosan, zamonaviy mavzularda kalam tebratdi, dramaturgiyasida esa, tarixiy o'tmishga teran nazar tashlab, undagi zamonaviy muammolarni yoritishga yordam beruvchi siymolar va voqealarga yangi badiiy hayot bag'ishladi. U umrining so'nggi yillarida Beruniy to'g'risida so'nggi sahna asarini yozdi.

¹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/maqsud-shayxzoda-haqida-xotiralar>

² <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/maqsud-shayxzoda-haqida-xotiralar>

³ uz.wikipedia.org/wiki/Shayxzoda

Shayxzoda, badiiy ijodning barcha tur va janrlarida asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali ijod qilgan.

Asarlari kabi uning xotirasi va bosib o'tgan umr yo'li ham nafaqat sahnalarimizda balki qalbimizning eng tubida abadiylikka muhrlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT(REFERENCES)

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/maqsud-shayxzoda-haqida-xotiralar>
2. uz.wikipedia.org/wiki/Shayxzoda
3. M.Shayxzoda.Jaloliddin Manguberdi drammasi